

## RAQAMLI TO'LOVLAR VA ELEKTRON PUL AYLANISHI: YANGI IQTISODIY BOSQICH

**Uzakov Utkir Abdusattarovich**

*University of Business and Science Toshkent filiali, “Iqtisodiyot” kafedrası katta  
o‘qituvchisi*

utkir.uzakov@ubsu.uz

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada raqamli to'lov tizimlari va elektron pul aylanishining zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Raqamli to'lov vositalari – mobil ilovalar, bank kartalari, onlayn tranzaksiyalar hamda elektron hamyonlar orqali amalga oshirilayotgan moliyaviy operatsiyalar iqtisodiy samaradorlikni oshirish, norasmiy iqtisodiyotni qisqartirish va aholining moliyaviy inklyuziyasini ta'minlashda muhim vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Maqolada O'zbekistonda Payme, Click, HUMO va boshqa to'lov tizimlarining joriy etilishi, ulardan foydalanish sur'atlari hamda iqtisodiyotga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, raqamli to'lovlarning imkoniyatlari bilan birga mavjud muammolar – xavfsizlik, ishonchlilik va infratuzilma bilan bog'liq masalalar ham tahlil qilinadi. Shuningdek maqolada raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonida elektron to'lov tizimlarining tutgan o'rni va istiqbollari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** *Raqamli to'lov, elektron pul, to'lov tizimlari, soliqlar, texnologiyalar, elektron pul.*

## ЦИФРОВЫЕ ПЛАТЕЖИ И ЭЛЕКТРОННОЕ ДВИЖЕНИЕ ДЕНЕГ: НОВЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ ЭТАП

**Узаков Уткир Абдусаттарович**

*Ташкентский филиал University of Business and Science, Преподаватель  
кафедры “Экономика”*

utkir.uzakov@ubsu.uz

**Аннотация:** В данной статье анализируется роль и значение цифровых платежных систем и электронного денежного обращения в современной экономике. Цифровые платежные инструменты — мобильные приложения, банковские карты, онлайн-транзакции и электронные кошельки — выступают в качестве важного средства повышения экономической эффективности, сокращения теневой экономики и обеспечения финансовой инклюзии населения.

В статье рассматриваются внедрение в Узбекистане таких платежных систем, как Payme, Click, HUMO и других, темпы их использования и влияние на экономику. Также анализируются не только возможности цифровых платежей, но и существующие проблемы, связанные с безопасностью, надежностью и инфраструктурой. Кроме того, в статье раскрывается роль и перспективы электронных платежных систем в процессе перехода к цифровой экономике.

**Ключевые слова:** *Цифровой платёж, электронные деньги, платёжные системы, налоги, технологии, электронные деньги.*

## DIGITAL PAYMENTS AND ELECTRONIC MONEY CIRCULATION: A NEW ECONOMIC STAGE

**Uzakov Utkir Abdusattarovich**

*Tashkent Branch of the University of Business and Science, Senior Teacher of the Department of “Economics”*

utkir.uzakov@ubsu.uz

**Abstract:** This article analyzes the role and importance of digital payment systems and electronic money circulation in the modern economy. Digital payment tools — such as mobile applications, bank cards, online transactions, and e-wallets — have emerged as key instruments for increasing economic efficiency, reducing the informal economy, and ensuring financial inclusion of the population. The article discusses the introduction and adoption rates of payment systems such as Payme, Click, HUMO, and others in Uzbekistan, as well as their impact on the economy. It also examines not only the opportunities offered by digital payments but also the existing challenges related to security, reliability, and infrastructure. Furthermore, the article explores the role and prospects of electronic payment systems in the transition toward a digital economy.

**Keywords:** *Digital payment, electronic money, payment systems, taxes, technologies, electronic money.*

### KIRISH

Bugungi tez sur'atlarda raqamlashtirilayotgan dunyoda moliyaviy tizimlarning zamonaviylashuvi global va milliy iqtisodiyotlarning eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirish, moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatini kengaytirish hamda soyaning qisqarishiga xizmat qilmoqda. An'anaviy naqd pul muomalasining cheklanishi va elektron to'lov vositalarining ommalashuvi, bir tomondan, to'lov tizimlarining tezligi va qulayligini ta'minlasa, boshqa tomondan –

iqtisodiyotni yanada shaffof qilishga, davlat nazoratini kuchaytirishga va soliq tushumlarini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyot, xususan elektron to'lov tizimlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Payme, Click, Oson, A-pay va boshqa innovatsion to'lov tizimlari aholining keng qatlamlari tomonidan faol qo'llanilmoqda va bu jarayon yangi iqtisodiy bosqichning shakllanishiga zamin yaratmoqda. Hususan O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida" qonuni [1] bu boradagi asosiy huquqiy asoslardan biri sanaladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI**

Bugungi kunga kelib raqamli to'lov tizimlari va elektron pul aylanishi haqida juda ko'plab ilmiy ishlar qilinib, ilmiy adabiyotlar va qo'llanmalar yaratilib kelinmoqda. Xususan raqamli to'lov tizimlari va elektron pul aylanishi haqida bildirilgan fikrlarni quyida keltirib o'tamiz.

Elektron pul (elektron pul) - bu kompyuterlashtirilgan qurilmada ayirboshlash vositasining raqamli do'koni. Elektron puldan bank hisobvaraqlari bilan yoki ularsiz to'lov operatsiyalari uchun foydalanish mumkin. Albatta, katta afzallik - bu har qanday hajmdagi pul o'tkazmalarini tez va oson amalga oshiradigan naqd pulsiz to'lov tizimi [2].

Bugungi kunda raqamli yoki elektron vositalar orqali pul yuborish yoki boshqarish nafas olish kabi tabiiy ko'rinadi. Pulni ko'chirish uchun faqat tugmani bosish yoki teginish kerak bo'ladi [3].

Raqamli to'lovlar qiymati (masalan, pul) bir hisobdan ikkinchisiga elektron tarzda o'tkaziladigan har qanday operatsiyani o'z ichiga oladi. Naqd pul bilan amalga oshiriladigan an'anaviy to'lovlardan farqli o'laroq, raqamli pul o'tkazmalari nomoddiydir [4].

Elektron to'lovlar vositasida pul majburiyatlari ijrosi ta'minlanadi. Taraflarning pul majburiyati bo'yicha pul mablag'larini o'z muddatida elektron to'lovlar asosida o'tkazib berilishi iqtisodiy munosabatlarda debitorlik va kreditorlik qarzdorliklarni oldini olinishiga xizmat qiladi [5].

### **METODOLOGIYA**

Ushbu tadqiqotning maqsadi elektron pul aylanishining iqtisodiyotga ta'siri, raqamli to'lovni joriy etishning iqtisodiy samarasi hamda rivojlanishi, raqamli to'lovdan foydalanishning afzalliklari va kamchiliklari, raqamli to'lovning zamonaviy iqtisodiy tizimidagi ahamiyatini tahlil qilish, uni yanada rivojlantirish va shakllantirish yo'nalishlarini aniqlashdir. Mavzuni ilmiy o'rganish va tahlil jarayonida, statik tahlillar, mantiqiylik, tahlil va tadqiq etish jarayonida turli xil adabiyotlar va maqolalar tahlilidan foydalanilgan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

### *1. Raqamli to'lov tizimlarining mohiyati va afzalliklari.*

Raqamli to'lov – bu to'lovni raqamli formatda, ya'ni onlayn yoki elektron qurilmalar orqali amalga oshirish jarayonidir. Bu turdagi to'lovlar an'anaviy naqd pul muomalasidan tezkorligi, qulayligi va xavfsizligi bilan farq qiladi. Elektron hamyonlar, bank kartalari, mobil ilovalar (Payme, Click, Apelsin va boshqalar), QR-kod orqali to'lov, hamda kontaktless texnologiyalar raqamli to'lovlarning eng keng tarqalgan shakllaridir.

Ularning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- Tezkorlik va qulaylik: foydalanuvchi istalgan joydan, istalgan vaqtda to'lovni amalga oshira oladi;
- Shaffoflik: barcha operatsiyalar raqamli izga ega bo'ladi, bu esa korrupsiyaga qarshi kurashish, soliq tushumlarini oshirishga xizmat qiladi;
- Xavfsizlik: zamonaviy shifrlash texnologiyalari yordamida tranzaksiyalarni himoyalash imkoniyati mavjud;
- Xarajatlarning kamayishi: naqd pulga ishlov berish, tashish va saqlash xarajatlari kamayadi.

### *2. O'zbekistonda raqamli to'lov tizimlarining rivojlanishi.*

O'zbekiston so'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga qaratilgan qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi [6] asosida mamlakatda elektron to'lov tizimlarini kengaytirish, banklararo integratsiyani kuchaytirish va moliyaviy xizmatlarga kirishni yengillashtirish maqsad qilingan.

Hozirda O'zbekistonda quyidagi raqamli to'lov vositalari keng tarqalgan:

- Payme – kichik va o'rta biznes uchun to'lov qabul qilish imkonini beruvchi eng ommabop ilovalardan biri;
- Click – davlat xizmatlariga to'lovlar, mobil aloqa, kommunal xizmatlar va boshqa yo'nalishlarda keng qo'llaniladi;
- HUMO va Uzcard – milliy to'lov tizimlari bo'lib, kontaktless (bevosita aloqasiz) texnologiyalarni joriy etmoqda.

O'zbekistonda elektron to'lovlar ekotizimi imkoniyatlari haqida statistikada 2024-yilning 9 oyi mobaynida ATTOdagi tranzaksiyalar soni 101 million tashkil qilganligini ham ko'rishimiz mumkin<sup>1</sup> [7].

Shuningdek, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi (my.gov.uz, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali) orqali fuqarolar elektron to'lov orqali ko'plab xizmatlardan foydalanish imkoniga ega bo'lmoqda.

### *3. Elektron pul aylanishining iqtisodiyotga ta'siri.*

<sup>1</sup> <https://infocom.uz/statistics>

Elektron pul aylanishi iqtisodiyotda bir nechta ijobiy ta'sirlarni yuzaga keltiradi:

- Norasmiy sektorni qisqartiradi – barcha operatsiyalarning raqamli ro'yxati mavjudligi iqtisodiyotni rasmiylashtirishga yordam beradi;
- Bank tizimining rivojlanishini rag'batlantiradi – odamlar bank xizmatlariga ko'proq murojaat qila boshlaydi;
- Tadbirkorlik uchun yangi imkoniyatlar yaratadi – kichik va o'rta biznes oson va arzon to'lov qabul qilish usullariga ega bo'ladi;
- Davlat daromadlari oshadi – soliq bazasi kengayadi.

#### 4. Raqamli to'lov tizimlarining muammolari va yechimlari.

Har qanday innovatsion tizimda bo'lgani kabi, raqamli to'lovlar ham bir qator muammolar bilan to'qnash keladi:

- Texnologik infratuzilmaning yetarli emasligi – ayniqsa qishloq joylarda internet qamrovi past;
- Xavfsizlik tahdidlari – kibermuhofaza va foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilish dolzarb masala;
- Raqamli savodxonlikning pastligi – ba'zi aholining texnologiyalardan foydalanishga tayyor emasligi;
- Qonunchilikdagi bo'shliqlar – yangi xizmatlarga mos tartib va nazorat mexanizmlari doimiy yangilanishni talab qiladi.

Bu muammolarni bartaraf etish uchun quyidagilar muhim:

- Internet infratuzilmasini yaxshilash;
- Moliyaviy va raqamli savodxonlik bo'yicha keng ommaviy targ'ibot ishlari;
- Davlat tomonidan qonunchilikni zamonaviylashtirish;
- Banklar va texnologik kompaniyalar o'rtasida hamkorlikni mustahkamlash.

## XULOSA

Bugungi kunda dunyo iqtisodiyoti o'zgarmoqda va bu o'zgarishlar asosan texnologiyalar va innovatsiyalar orqali amalga oshirilmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni tezda o'zgartirishga va yangi iqtisodiy tizimlarni yaratishga qodir [8].

QR kod, NFC (Near Field Communication) va kriptovalyutalar kabi yangi texnologiyalar raqamli to'lov tizimlarini yanada rivojlantirish va aholi uchun keng imkoniyatlar yaratishi kutilmoqda. Shu bois raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish iqtisodiyot va jamiyat uchun katta ahamiyatga ega<sup>2</sup> [9].

Raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi bugungi global iqtisodiyotda asosiy yo'nalishlardan biriga aylangan bo'lib, mamlakatlar iqtisodiy barqarorlik, moliyaviy shaffoflik va samaradorlikka erishishda ushbu texnologiyalarga katta tayanmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham raqamli moliyaviy xizmatlar tobora kengayib, aholi

<sup>2</sup> <https://infocom.uz/articles/raqamli-tolov-tizimlarini-rivojlanish-trendensiyalari>

va tadbirkorlar tomonidan faol qo'llanilmoqda. Payme, Click, HUMO, Apelsin kabi tizimlar orqali to'lovlarning oson, tez va xavfsiz amalga oshirilishi nafaqat kundalik hayotni yengillashtirmoqda, balki iqtisodiy faollik, soliqlarning oshishi va norasmiy sektor qisqarishiga ham xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, bu yo'nalishda muayyan muammolar – texnologik infratuzilma, kiberxavfsizlik, raqamli savodxonlik va qonunchilikdagi bo'shliqlar ham mavjud.

Mazkur jarayonlar shuni ko'rsatadiki, raqamli to'lovlar va elektron pul aylanishi O'zbekiston iqtisodiyotini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Biroq bu imkoniyatlardan to'liq va samarali foydalanish uchun tizimli yondashuv zarur.

*Takliflar:*

*1. Raqamli infratuzilmani rivojlantirish.*

Qishloq va chekka hududlarda yuqori tezlikdagi internet tarmog'ini kengaytirish orqali barcha aholi qatlamlarini raqamli to'lov tizimlaridan foydalanishga jalb etish.

*2. Moliyaviy va raqamli savodxonlikni oshirish.*

Maktab, kollej va oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy texnologiyalar bo'yicha darslar, seminarlar, treninglar tashkil qilish.

*3. Kiberxavfsizlikni kuchaytirish.*

Elektron to'lov tizimlarining axborot xavfsizligini ta'minlash, foydalanuvchi ma'lumotlarini himoya qilishga qaratilgan texnik va huquqiy choralarni kuchaytirish.

*4. Yangi to'lov texnologiyalarini qo'llab-quvvatlash.*

Innovatsion startaplar, fintech kompaniyalar va banklar o'rtasida hamkorlikni rag'batlantirish hamda ularni soliq va ma'muriy yengilliklar bilan qo'llab-quvvatlash.

*5. Qonunchilikni takomillashtirish.*

Elektron pul, kriptoaktivlar, raqamli xizmatlar va onlayn to'lovlar sohasida zamonaviy talab va xavf-xatarlarga mos ravishda qonuniy asoslarni takomillashtirish.

*6. Davlat xizmatlarining to'liq raqamlashtirilishini ta'minlash.*

Barcha davlat xizmatlari uchun yagona elektron to'lov tizimi orqali xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. 2019-yil 1-noyabrdagi O'zbekiston Respublikasining "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi O'RQ-578-son qonuni. <https://lex.uz/docs/-4575786>

2. Chad Morris Electronic Money Definition & Overview 28.12.2024 <https://tipalti.com/resources/learn/electronic-money/>

3. Karl Montevirgen How money moves in the era of digital payment systems <https://www.britannica.com/money/types-of-payment-systems>

4. Rachel Blakely-Gray Digital Payments Are a Staple in Friendships, but What About Business? 27.07.2021 <https://www.patriotsoftware.com/blog/accounting/digital-payments/>

5. U.A. Umarov. Elektron to'lovlarni rivojlanish bosqichlari, xususiyatlari, huquqiy asoslari va istiqbollari. *Siyosatshunoslik, huquq va xalqaro munosabatlar jurnali*. JILD:03 NASHR:08 2024 yil 73-81-bet.

6. 2020-yil 5-oktabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-6079-son farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

7. <https://infocom.uz/statistics>

8. U.A. Uzakov. Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishda raqamli texnologiyalar, xususan sun'iy intellektdan foydalanish va uning savdo korxonalaridagi o'rni va ahamiyati. "Raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. 2024-yil 22-noyabr, Toshkent, O'zbekiston 549-555 bet.

9. <https://infocom.uz/articles/raqamli-tolov-tizimlarini-rivojlanish-trendensiyalari>